

**ANDIJON VILOYATI TOG‘OLDI VA TOG‘ LANDSHAFTLARIDAN
FOYDALANISHNING HUDUDIY GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI VA
ULARNING YECHIMLARI**

Yuldashev Abbas Abdusattor o‘g‘li
Andijon davlat universiteti magistranti
E-mail: yuldashevabbosbek134@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlarining insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi, ijtimoiy maqsadlardan foydalanish sabablari, tog‘oldi va tog‘ landshaftlarining bugungi kundagi holati va Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlaridan foydalanishning hududiy geoeologik muammolari va ularning yechimlari haqida batafsil malumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Andijon viloyati, tog‘, tog‘oldi, tabaqalanish, landshaft, Farg‘ona, aholi punktlari, ekologik holat, vodiy, tog‘-kon, sanoat, geoeologik muammolar.*

***Аннотация.** В статье дана подробная информация о человеческом освоении предгорных и горных ландшафтов Андижанской области, причинах их использования в социальных целях, современном состоянии предгорных и горных ландшафтов, а также региональных геоэкологических проблемах использования предгорных и горных ландшафтов Андижанской области и путях их решения.*

***Ключевые слова:** Андижанская область, горы, предгорья, стратификация, ландшафт, Фергана, населенные пункты, экологическая ситуация, долина, горнодобывающая промышленность, геоэкологические проблемы.*

***Annotation.** The article provides detailed information on human development of foothill and mountain landscapes of Andijan region, reasons for their use for social purposes, current state of foothill and mountain landscapes, as well as regional geoeological problems of using foothill and mountain landscapes of Andijan region and ways to solve them.*

***Key words:** Andijan region, mountains, foothills, stratification, landscape, Fergana, settlements, environmental situation, valley, mining industry, geoeological problems.*

KIRISH

Bugungi kunda Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlari inson faoliyati to‘sirida ancha o‘zgargan. Shu sababli chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish asosida kelgusida sodir bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan o‘zgarishlar to‘g‘risida ogohlantirish lozim, yo‘ni o‘zgartirilmagan joylarni (rayonlarni) o‘zlashtirishga fan va amaliyotning so‘ngi yutuqlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashish lozim. Tog‘ landshaftlarini yaqin kelajakda o‘zgartirish ko‘lamlari ularning tabiiy salohiyati va ekologik sig‘imiga nisbatan uncha katta bo‘lmaydi. Ammo bunday hol tog‘li hududlarda tabiatni muhofaza qilish muammolarining yechimidan xalos etmaydi, chunki bu landshaftlar konkretligi va shikastlanish xususiyatlarining yuqori bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Tog‘lar nafaqat balandligi va landshaft xususiyatlariga ko‘ra, balki shu xususiyatlarga bog‘liq holda xo‘jalik turlari, ixtisoslashuvi, kishilarning hayot sharoiti va yashash tarziga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi. Past tog‘lar relyefining kam parchalanganligi, ishlov berish va aholining joylashuvi uchun yaroqliligi bilan ifodalanadi [2].

O‘rtacha baland tog‘larda esa haydaladigan yerlar asosan tog‘oralig‘i botiqlarida va daryo vodiylarida mavjud. Iqlim sharoiti issiqsevar ekinlarni yetishtirishga imkon bermaydi, ammo chorvachilik uchun qulay imkoniyatlarga ega. Relyefi kuchli parchalangan baland tog‘larda aholi yashashi uchun imkoniyatlar qulay emas. Landshaft salohiyati mavsumiy chorva yaylovlari uchun ancha qulay imkoniyatlar yaratadi.

ASOSIY QISM

Tog‘lar va tekisliklar hududlarining landshaft tuzilmasidagi tafovutlar landshaftlarning tog‘va tekislik sinflari ajratish imkonini beradi. Tog‘oldi va tog‘ landshaftlari yarusli tafovutlariga ko‘ra kichik sinflarga ajratilishi mumkin. Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘ landshaftlari sinfi doirasida quyidagi kichik sinflar xususiyatlariga ko‘ra ajratiladi.

1. Adirlar va past tog‘larning landshaftlari;
2. O‘rtacha balandlikdagi tog‘larning landshaftlari (1-rasm).


Andijon viloyati hududida tarqalgan landshaftlaridan insonning xo‘jalik faoliyatida qadimdan foydalanilib kelingan. Shu sababli viloyatning katta qismida landshaftlar turli darajada antropogen o‘zgarishlar bo‘lgan. Ularni tavsiflashda antropogen omillarning rolini ham albatta e‘tiborga olmoq lozim. Ayniqsa, landshaft turi kattaligidagi landshaftlarni tariflashda va baholashda ularning antropogen omillar ta‘sirida o‘rganish darajasi nazardan chetda qolmasligi zarur [4].

Andijon viloyati hududida landshaft hosil qiluvchi omillar va shu landshaft hududlarida aholining joylashuvi, aholining ko‘payishi yoki takror barpo bo‘lishi bosqichlari va landshaftlarning hududiy tabaqalashuv xususiyatlarini o‘rganish bu hududda tarqalgan landshaftlarni tipologik jihatdan tasniflash imkonini beradi.

Andijon viloyati tog‘oldi va tog‘lik qismida yaruslilikning namoyon bo‘lishi va tog‘larda balandlik zonalarini spektrining darajasi, gipsometrik sath (absolyut balandlik), relyefning genizisi va parchalanish darajasiga ko‘ra landshaftlarda aholi joylashuvining quyidagi kichik sinflarini ajratish mumkin.

1. Adirlar va past tog‘larning landshaftlarida aholi joylashuvi;
2. O‘rtacha balandlikdagi tog‘ landshaftlarida aholi joylashuvi.

Adirlari va past tog‘lar landshaftlari kichik sinfda o‘rtacha quruq tipik bo‘z tuproqlaridagi tog‘chalacho‘l landshaftlari zonal tipi ajratiladi.



1-rasm. Andijon viloyati tog' va tog' oldi landshaft kartasi

Tog'chalacho'l landshaftlari Andijon viloyatining Qoraadir, Askaadir, Andijon, Teshik-Tosh adirlari hamda ular tutashib turgan past tog'lar (absolyut balandligi 500 m dan 1000-1200 m gacha) uchun xos [3].

Asaka va Jalaquduq tumanlari aholisining shu hududlardagi adirlarida joylashgan qismi ancha notekis, ammo, sergavjum joylashgan. Andijon tumani hududi va unga yaqin bo'lgan joylarda aholi gavjum hisoblanadi. Aholi dehqonchilik tarmoqlaridan bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, pillachilik, go'sht-sut chorvachiligi bilan shug'ullanadi.

Tog'-chalacho'l landshaftlari tarqalgan past tog'lar va adirlarning iqlim sharoitlari tekis landshaftlariga nisbatan biroz yumshoqroq. Yillik yog'inlarning miqdori nisbatan ancha ko'p. Shu tufayli yerlarning o'zlashtirilishi sababli ekin maydonlarining ko'payishiga olib keldi. O'zlashtirilgan landshaft, unumdor tuproq va xalqning mehnatkashligi tufayli yangidan-yangi bog'lar, ekin maydonlari va shu hududda yetishtiriladigan mevalarni qayta ishlash korxonalari bunyod etildi. Tuman aholisi qolaversa qishloq aholisi ish bilan bandligi yildan-yilga oshib bormoqda.

Adirlar va past tog'larning landshaft salohiyatini ishlab chiqarishning turli sohalarida o'zlashtirish imkoniyatlari katta. Bu yerdagi ko'plab tranzit daryolar va tog'soylarining suvlari bevosita yoki suvomborlari orqali sug'orishga olinadi [1].

Adirlar va past tog'larning landshaftlari yaylovlar va pichanzorlar sifatida foydalaniladi. Bu yerdagi deyarli 900 ming ga maydondan yaylovlar sifatida foydalanilishi mumkin.

Adir mintaqasiga viloyatning Andijon, Asaka, Buloqboshi, Marxamat, Jalaquduq, Xo'jaobod va Qo'rg'ontepa tumanlarining tog'oldi tekisliklari va qirlari kiradi.

Tog'-cho'l landshaftlari tarqalgan hududlarda tabiatdan oqilona foydalanishni tashkil etish yaylovlarni fitomeliorsiya qilish, lalmikor yerlarda esa eroziyaga qarshi agrofitomeliorsativ tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi [5].

O'rtacha balandlikdagi tog'lar kichik sinfiga (doirasiga) landshaftlarning quyidagi ikki zonal tipi ajratiladi:

- o'rtacha nam to'q tusli bo'z tuproqlaridagi quruq dasht landshaftlari;
- nam (gumid) tog'-o'rmon jigarrang tuproqlardagi o'rmon-dasht landshaftlari.

O'rtacha baland tog' landshaftlari 1200-2000 m balandliklar oralig'idagi tog' yonbag'irlarida tarqalgan. Bu xildagi landshaftlar Oloy tizmasining shimoliy tarmoqlarida, Qora-Chatir, Chilustin va Qirtoshtau tog'larida, Farg'ona tizmasining g'arbiya va janubi-g'arbiy tarmoqlari Qoratog' va Char-Tash va boshqa tog'massivlarida mavjud. O'rtacha baland tog'landshaftlari 246 ming ga maydonni band etadi.

Quruq tog'-dasht landshaftlari azaldan insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida bo'lgan. O'tmishda keng tarqalgan butali-daraxtli o'simliklar tez nobud qilingan. Hozirgi paytda ayrim joylardagina saqlanib qolgan pista, arg'uvon yoki do'lananing uchrashi o'tmishda bu landshaftlarda butalar va daraxtlar o'sganligidan guvohlik beradi. Hozirgi paytda o'tchil o'simliklar ustuvor bo'lib, ular yuzasining 60-70% ni qoplaydi. Tog'-dasht o'simliklari rang-barang va turlarga boy bo'lishi tufayli muhim xo'jalik ahamiyatiga ega. O'simlik qoplaminin qalin bo'lishi uchun nam yetarli va shu sababli o't qoplami mahsuldor yaylovlarni hosil qiladi. Bu yaylovlar o'simlik qoplami davomida chorvachilik bilan shug'ullanish uchun yaroqlidir. Lekin amalda ular ko'proq yozgi, erta kuzgi va keng bahorgi yaylovlar sifatida chorva mollarning barcha turlari uchun ahamiyatlidir [7].

O'rtacha baland tog'lar landshaftlarida aholi ko'p notekis joylashgan. Aholining ko'p qismi daryo vodiylarida o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoitlarda yashashadi.

O'rtacha balandlikdagi tog'larning yuqori qismlari uchun (1800-2000 m dan 2800-3000 m gacha balandliklarda) o'rmon-o'tloq-dasht landshaftlari xos. Bu tipdagi landshaftlar tarqalgan hududlar kuchli parchalangan relyef bilan ifolanadi. Lekin bu turdagi landshaftlar Andijon viloyati hududida uchramaydi yoki deyarli mavjud emas.

O'rtacha balandlikdagi tog'larda landshaftlarga, ayniqsa o'simlik olamiga, antropogen omillar ta'sirini cheklash va o'rmonlarni qayta tiklashga doir turli xildagi meliorativ tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda juda zarur. Chunki, o'rmonlar maydonining qisqarishi, boshqa o'simliklarning payhon qilinishi tog'yonbag'irlarida eroziya jarayonlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Tog' o'rmonlari va umuman o'simlik olami to'g'risida so'z borganda ularning muhim landshaft hosil qiluvchi omiligi nazardan chetda qolmasligi lozim. Andijon viloyatidagi mahalliy suvlarining shakllanishi o'rtacha balandlikdagi va baland tog'larda kechadi. Viloyat doirasida uzunligi 10 km dan 150 km gacha bo'lgan 20 dan ortiqroq katta-kichik daryolarning deyarli barchasi tog'larda boshlanadi. Shu sababli suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish birinchi galda tog' o'rmonlari va boshqa o'simliklarni muhofaza qilish bilan bevosita bog'liq [6]. Ayni paytda tog'li hududlarida surilma, o'pirilma, sel, eroziya kabi tabiiy jarayonlarga qarshi tadbirlarning o'tkazilishi ham tog'li hududlarining o'simlik olamini asrab-avaylash bilan bevosita bog'liq.

XULOSA

Tog' landshaftlari, shuningdek, kishilarning salomatligini tiklashda, rekreatsiyada, sayyohlikda muhim ahamiyatga ega bo'lgan obyektlardir. Hozirgi paytda viloyatdagi sanatoriyalar, oromgohlar, dam olish uylarining katta qismi o'rtacha balandlikdagi tog'hududlarida joylashgan. Ammo, bu hududlarning

rekreatsiya imkoniyatlarini o'zlashtirish yaqin istiqboldagi muhim ijtimoiy vazifadir. Shu sababli bu hududlardagi rekreatsiya tizimlarini o'z ichiga oladigan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim.

Andijon viloyati tog'oldi va tog'li hududlarining landshaftlariga xos bo'lgan o'simliklar va hayvonlarni tabiiy rivojlanishi, tabiiy landshaftlar tuzilmasining dinamikasi va rivojlanishini, fauna va florasining noyob va yo'qolib borayotgan turlarini saqlab qolish hamda ko'paytirish, tabiatning noyob joylar shakllarini saqlab qolish maqsadga muvofiqdir. Bizning nazarimizda tog'landshaftlariga inson xo'jalik faoliyati tazyiqini cheklash va tabiiy landshaftlarini ilmiy asosda o'rganish maqsadida qo'riqxonalar maydonini kengaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулкасымов А.А. Ландшафтно-типологическое картирование и физико-географическое районирование Ферганской котловины: Дис. канд.геог.наук.-Воронеж. 1964.
2. Маматкулов М. Ўрта Осиё геоморфологияси. Т.: 2008.
3. Мамажонов М. Алиев Х. Андижон географияси (Андижон вилояти табиий ва иқтисодий-ижтимоий географияси) /2022.
4. Манегина Л.А. Климат Ферганской долины // Ферганская долина. – Ташкент, 1954. – Т. II.
5. Ниғматов А., Юсупов Р., Дадахўжаев А., Атаханов Н. Адирларда жарланиш ва уларга қарши кураш чоралари. -Т.: Университет, 2000. 90-95 б.
6. Хусайнов А.Т.,Софронова Л.И.Влияние урановых хвостохранилищ Степногорского гидрометаллургического завода на Загрязнение поверхностных и подземных вод. Вестник науки КазАТУ им. С.Сейфуллина. – 2011. - №4.
7. Эшбоев Р.Е. Геология, геоморфология ва тупроқшунослик асослари. -Т.: 2002.